YUNESKO ishlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi

National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

O'zbekiston, Toshkent, 100084, Amir Temur shoh ko'chasi, 107 B uy / 107 B, Amir Temur Avenue, Tashkent, 100084, Uzbekistan
tel: (+998-90) 186-06-13 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2022-yil 15-aprel № 084/22

Xalq ta'limi vazirligiga

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga

Ma'lumot uchun: Tashqi ishlar vazirligiga

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi nomidan o'z hurmatimizni izhor etamiz va quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Xalqaro hamjihatlik ta'limi bo'yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi YUNESKOning 2-kategoriya markazi (APCEIU) ***"O'qituvchilarni pandemiyadan keyingi davrga tayyorlash: Global fuqarolik ta'limi o'zgarishlarning asosi"*** mavzusida 21-Osiyo va Tinch okeani mintaqasi o'quv mashg'uloti dasturida (APTW) o'qituvchilar uchun global fuqarolik ta'limi va xalqaro hamjihatlik ta'limi bo'yicha o'quv seminarlarida ishtirok etish uchun tanlov e'lon qildi.

Dasturning birinchi bosqichi, asosiy seminar hisoblanib, **2022-yilning 30-maydan 9-iyun** kuniga qadar tanlov g'oliblari ishtirokida o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqich, trenerlarni tayyorlash o'quv mashg'uloti hisoblanib, **2022-yilning 30-iyundan 29-iyul** kuniga qadar tashkil etiladi. Mazkur bosqichda ham tanlov asosida ishtirok etiladi.

Dasturning asosiy maqsadi global fuqarolik va xalqaro hamjihatlik ta'limi sohasida ma'ruzalar, ekspertlarning jonli vebinarlari, guruh faoliyati va muhokamalari orqali hamkorlik qilish va tajriba almashishdan iborat.

O'quv mashg'ulotni muvaffaqiyatli yakunlagan ishtirokchilarga global fuqarolik ta'limi va xalqaro hamjihatlik ta'limi bo'yicha loyiha taklifini yuborish orqali "grant" va dasturning "ustozlik" bosqichi tanlovida ishtirok etish imkoniyati beriladi. Dastur ingliz tilida olib boriladi.

Nomzodlar ariza varaqalarini 2022-yilning 16-may kuniga qadar quyidagi havolada onlayn to'ldirishi lozim: https://forms.gle/ALsDHN6BZJ1vroHM8.

Shuningdek, nomzodlarni tavsiya etish bo'yicha maktublar 2022-yilning 16-may kuniga qadar YUNESCO ishlari bo'yicha Milliy komissiya kotibiyatiga yuborilishi lozim.

Shu munosabat bilan, yuqorida qayd etilgan mavzu bo'yicha yurtimiz oqituvchilarining malaka oshirishi, tajriba almashishi uchun tanlovda ishtirok etishi maqsadga muvofioq deb hisoblaymiz.

Ko'rib chiqishingizni so'raymiz.

Ilova: 6 varaq.

Bosh kotib **G.Umerova**